

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**

**KABILOV KAMOLIDDIN ESHBOLTAYEVICH**

**MANG'ITLAR DAVRI SAVDO ALOQALARIDA  
SURXON VOHASINING TUTGAN O'RNI**

**07.00.01 – O'zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Kabilov Kamoliddin Eshboltayevich**

Mang‘itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o‘rni..... 5

**Кабиров Камолиддин Эшболтаевич**

Роль Сурханского оазиса в торговых отношениях Мангытского периода..... 25

**Kabilov Kamoliddin Eshboltaevich**

Surkhan oasis in trade relations during the Mangit period position..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**

**KABILOV KAMOLIDDIN ESHBOLTAYEVICH**

**MANG'ITLAR DAVRI SAVDO ALOQALARIDA  
SURXON VOHASINING TUTGAN O'RNI**

**07.00.01 – O'zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1408 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz iqtisodiyot va servis universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch til (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)da Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qarshidu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim tarmog'i portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tursunov Nurullo Narzullayevich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xasanov Akram Muminovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Ochildiyev Fayzulla Boboqulovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz.).

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 221-34-13).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi  
(2024-yil "\_\_\_\_\_" dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**B.J. Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, t.f.d.,  
professor

**N.N. Rajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.n., dotsent

**Yu.A. Ergasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida ro'y berayotgan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarini savdo aloqalari va kommunikatsiya tizimi tarmoqlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mazkur jarayonda BMTning "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash va rivojlantirish", YUNESKO ning "Ipak yo'lini integral o'rganish-muloqot yo'li" singari loyihalari doirasida, G'arb va Sharq xalqlari o'zaro iqtisodiy hamda madaniy aloqalarining rivojlanish tarixini o'rganish dolzarb ahamiyatga egadir. Mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi ilm-fan, madaniyat sohasidagi hamkorlik, shuningdek, savdo, transport logistikasi, turizm xizmatlari sohalaridagi xalqaro hamkorliklar ko'p asrlik madaniy hamda savdo aloqalari sifatida tarixiy an'analarning mantiqiy davomi ekanligini namoyon etib, ularni chuqur tahlil etish muhim sanaladi.

Hozirda dunyoning rivojlangan ilmiy markazlarida hududlar va mintaqalarni o'zaro bog'lovchi savdo aloqalarining rivojlanish tarixi, quruqlik va suv yo'llari kabi kommunikatsiya tarmoqlarining iqtisodiy hamkorlikdagi o'rni, jumladan, tashqi va ichki savdo aloqalarining esa mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatini o'rganish borasida ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Buyuk ipak yo'li o'tgan hududlar orqali qadimiy savdo yo'llarini qayta tiklash, savdo tarmoqlari tizimini yanada rivojlantirish, tarixdagi bozorlar, karvonsaroylar faoliyati, boj-soliq va pul-moliya sohalarida to'plangan boy o'tmish tajribalarni zamonaviy asoslarda joriy qilish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini yuksaltirish borasida turli xalqaro savdo dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiy holatini yanada mustahkamlash va aholi moddiy farovonligini oshirishga qaratilmoqda. Ayniqsa, hududlar iqtisodiyotini yuksaltirish uchun o'tmishdagi kabi Buyuk ipak yo'li orqali olib borilgan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarni tiklash muhim vazifalardan biriga aylandi. Zero, "Bugungi real voqelik Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirish yo'lida qat'iy qadamlar tashlashni talab qilmoqda. Bunda hududlararo savdo-sotiqni yanada kengaytirish zarur"<sup>1</sup>. Bu borada mintaqadagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni tarixiy-xronologik izchilik, qiyosiy yondashuv asosida yoritib berish muhim masalalardan biridir. Shu sababdan Surxon vohasining XVIII-XX asr boshlaridagi savdo aloqalari va ularga xizmat qilgan savdo yo'llari infrastrukturasining muhim tarixiy va iqtisodiy ahamiyatini yoritish dolzarb sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-son "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tarmog'ini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 366.

strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3221-son "O'zbekiston Respublikasi temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 1-fevraldagi PQ-5647-son "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PQ-4300-son "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga asosan bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mavzu tarixshunosligiga oid adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish muvofiqdir: 1. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi bosqini arafasida hamda hukmronligi davrida yozilgan asarlar; 2. Sovetlar davrida yaratilgan ilmiy asarlar; 3. Mustaqillik yillarida chop etilgan adabiyotlar; 4. Xorijlik mualliflarning Buxoro amirligi tarixiga oid asarlari.

*Birinchi guruhga* mahalliy va rossiyalik olimlar, rus harbiy, sayyoh va elchilarining asarlari taalluqli bo'lib, ular XIX asr o'rtalaridan boshlab Buxoro amirligini har tomonlama o'rganishga harakat qilganlar<sup>2</sup>. Bu asarlarda asosiy e'tibor, Buxoro amirligining umumiy tavsifiga qaratilib, amirlikdagi savdo munosabatlarining ayrim jihatlariga oydinlik kirituvchi ba'zi ma'lumotlar qayd etilgan. Jumladan, ularda XIX asrda amirlikdagi siyosiy-ma'muriy boshqaruvi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, hududlardagi bozor va karvonsaroylar faoliyati, savdo-sotiq jarayonlarining o'ziga xos jihatlari, boj-soliq va pul-moliya tizimi, aholining etnik tuzilishi, xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir ko'plab qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan. XIX asrning 50-yillariga oid bo'lgan P.I. Nebolsin asarlarida O'rta Osiyo, xususan, Buxoro amirligining ichki va tashqi savdo aloqalari, pul tizimi hamda savdo aloqalarida muhim o'rin tutgan karvon yo'llari haqida ba'zi ma'lumotlar berilgan.

---

<sup>2</sup> Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. – 271 б.; Ахмад Дониш. История мангитской династии. – Душанбе: Дониш, 1967. – 274 с.; Мирза Салимбек. Тарихий Салимий. – Тошкент: Академия, 2009. – 330 с.; Небольсин П. И. Очерки торговли России с Средней Азией / Зап. РГО. Кн. X. – Санкт-Петербург, 1855. – С. 1-355; Ўша муаллиф. Следование караванов из Бухары в Россию и обратно (Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом). – Санкт-Петербург, 1856. – 376 с.; Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч. I. – М., 1848. – 528 с.; Ч. II. – М., 1849. – 628 с.; Вамбери А. Путешествие в Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1865. – 348 с.; Грулев М. В. Амударья. – Ташкент, 1900. – 92 с.; Губаревич-Радобильский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – Санкт-Петербург, 1905. – 372 с.; Костенко Л. Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – Санкт-Петербург, 1871. – 13 с.; Семёнов-Тянь-Шанский В. П. Россия. Полное геогр. Описание. Т. 19. Туркестанский край. – Санкт-Петербург, 1913. – 860 с.; Яворский И. Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1876-1879 гг. Т. 1. – Санкт-Петербург, 1882. – 387 с.

D.N. Logofetning qator asarlarida Buxoro amirligining sharqiy bekliklari, uning aholisi, iqtisodiy-siyosiy ahamiyati, Termiz-Sherobod pochta-telegraf yoʻlining ochilishi, harbiy qismlarning joylashishi kabi masalalar yoritilgan hamda Turkiston general-gubernatorligining Buxoro amirligi bilan munosabati, Sharqiy Buxorodagi chegara istehkomlari va boshqa masalalar borasida muhim maʼlumotlar keltirilgan<sup>3</sup>.

XVIII-XX asr boshidagi Buxoro amirligining chegarasi, siyosiy-maʼmuriy tizimi, aholisi, qishloq xoʻjaligi, hunarmandchiligi, tashqi va ichki savdosiga oid maʼlumotlar sharqshunos N. Xanikovning asarlarida ham yoritilgan<sup>4</sup>. 1805-yili Rossiya tomonidan Buxoro amirligining janubiy hududlarini harbiy-siyosiy jihatdan oʻrganish maqsadida N.A. Mayev boshchiligidagi topograf – Vishnevskiy, tarjimon – Kazbekov, suratkash – Krivsov, tabiatshunos – F.F. Shvars, Kazakov va Vaynberglardan iborat maxsus ekspeditsiya tuziladi. N.A. Mayev Surxon vohasi tabiati, shahar va qishloq aholisi haqida ham maʼlumotlarni yozib qoldirgan<sup>5</sup>.

XVIII-XX asr boshlarida rus tilida yozilgan N. Veselovskiy, M. Venyukov, A. Semenov, N. Pavlov, M. Terentyev va boshqalarning ilmiy asarlarida amirlikning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti, uning xalqaro aloqalari haqida maʼlumotlar ham berilgan<sup>6</sup>. A. Ananyev tadqiqotlarida<sup>7</sup> Sherobod vohasi yerlarini Surxondaryo suvlari yordamida sugʻorish, harbiy nuqtai nazardan Termizda joylashgan otryadlarning strategik holatini yaxshilash, iqtisodiy tomondan Rossiyada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish uchun muhim bozor yaratishga ega boʻlishi haqida muhim hisobot materiallarini taqdim etadi.

R.Y. Rojevitsaning asarida Samarqand – Termiz katta yoʻl trakti, voha qishloqlari, Termiz shahrining sugʻorish tizimi kabi maʼlumotlar berilgan<sup>8</sup>, P. Shubinskiy, N.A. Benderinskiy asarlarida xoʻjalik tarixiga oid manbalar qayd etilgan<sup>9</sup>. Semyonov-Tyanshanskiy ham voha daryolari, paroxodchilik, savdo-sotiq haqida qimmatli maʼlumotlar keltirilgan<sup>10</sup>.

---

<sup>3</sup> Логофет Д.Н. Страна без правия. Бухарское ханство и его современное состояние. – Санкт-Петербург, 1909. – 239 с.; Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.1. – Санкт-Петербург, 1911. – 218 с.; В забытой стране. Путевые очерки по Средней Азии. – М., 1912. – 180 с.

<sup>4</sup> Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – Санкт-Петербург, 1843. – 279 с.

<sup>5</sup> Маев Н. Очерки горных бекств Бухарского ханства // Туркестанские ведомости. 1878. №49. 12 декабрь. – С. 194-195; №51. 28 декабрь. – С. 202-203; Долина Сурхана // Туркестанские ведомости. 1879. №36; Рекогносцировка горных путей в Бухарском ханстве // Известия ИРГО. Т.ХV. – Санкт-Петербург, 1879. – С. 87-99; Очерки Бухарского ханства // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.V. – Санкт-Петербург, 1879. – 400 с.

<sup>6</sup> Веселовский Н.И. Приём в России и отпуск Среднеазиатских послов в XVII и XVIII столетиях. – Санкт-Петербург, 1884. – 40 с.; Венюков М.Н. Поступательное движение России в Средней Азии // Сборник государственный знаний. Т.111. – Санкт-Петербург, 1877. – С. 117-118; Семёнов А. По границам Бухары и Афганистан // Туркестанский сборник. Т.554. – С. 1-14; Павлов Н.Г. История Туркестана в связи с кратким историческим очерком с определенных стран. – Ташкент, 1910. – 172 с.; Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии с картами и планами. Т.1. – Санкт-Петербург, 1906. – 576 с.

<sup>7</sup> Ананьев А.Г. Шерабадская долина. – Санкт-Петербург, 1914. – 87 с.

<sup>8</sup> Рожевица Р.Ю. Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г. // Известия ИРГО. Т.54. – Санкт-Петербург, 1908. – С. 593-653.

<sup>9</sup> Шубинский П. Очерки Бухары // Исторический вестник. – Санкт-Петербург, 1892. №8. – С. 370-390; Бендерский Н.А. О Гиссарском крае // Известия Туркестанского отдела РГО. Т. VII. – Ташкент, 1907. – С. 140-160.

<sup>10</sup> Семенов-Тянь-Шанский В.П. Россия. Полное географическое описание. Т. XIX. Туркестанский край. – Санкт-Петербург, 1913. – 860 с.

XIX asrning 80-90-yillardan boshlab O'rta Osiyoda temir yo'l tarmog'ini qurilishiga alohida e'tibor berilgan. Ayniqsa, F. Gire, M.I. Annenkov, I.Y. Vatslik, P. Poltaranov, A.I. Rodzevich, V.I. Massalskiy, A.I. Lavrov, A.A. Olsufyev va V.P. Panayevlarning temir yo'lining qurilish tarixiga bag'ishlangan asarlari muhim ahamiyatga ega<sup>11</sup>. Ta'kidlash joizki, amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy tarixini chuqur o'rganishda L.F. Kostenko, L.N. Sobolev va boshqa rus sharqshunoslari asarlari muhim manba vazifasini o'taydi<sup>12</sup>. Birinchi guruhga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning asarlarida turli ijtimoiy guruhlariga mansub mualliflar tomonidan kuzatilgan tarixiy jarayonlar aks ettirilgan bo'lib, bu asarlar tavsifiy xususiyatga ega ekanligi, mamlakatdagi savdo munosabatlarini tahlil etishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yaratilmaganligini qayd etishga imkon beradi.

*Ikkinchi guruh* adabiyotlari sirasiga sovetlar hukmronligi davrida yaratilgan ilmiy asarlarni kiritish mumkin. Bu davr tadqiqotlari orasidan A. Aminov, A. Boboxo'jayev, Y.E. Bunakov, X. Inoyatov, N. Xalfin<sup>13</sup>larning ishlari samarali o'rganildi. Ularda amirlikning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tarixini o'rganish maqsad qilib qo'yilmagan esa-da, mavzuning ayrim masalalari bo'yicha ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, xususan siyosiy boshqaruv, soliq siyosati, suv yo'li, savdo-sotiq kabi masalalar o'z aksini topgan<sup>14</sup>.

I.A. Remez, K.A. Sheyko, K.Z. Hakimova, L.N. Kravets, A.Y. Sokolov tadqiqotlarida Buxoro amirligi ichki va tashqi savdo, qishloq xo'jaligi, chorva mollari sotiladigan bozorlar, bojxona tizimi va boj to'lovlari masalalari haqida ma'lumotlar tahlil etilgan<sup>15</sup>.

<sup>11</sup> Гирс Ф. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором опросом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению (в двух частях). – Санкт-Петербург, 1883; Анненков М.И. Закаспийская железная дорога, ее значение и будущность. – Санкт-Петербург, 1887; Вацлик И.Я. Закаспийская железная дорога, ее экономическое значение и будущность. – Санкт-Петербург, 1888; Полтаранов П. Заметки о Закаспийской железной дороге с 1880 по 1889 г. Самарканд. 1890, Туркестанский сборник, т. 119. – С. 321-371; Родзевич А.И. Очерк постройки Закаспийской военной железной дороги и ее значение для русско-среднеазиатской промышленности и торговли. – Санкт-Петербург, 1891; Массальский В.И. Хлопковое дело в Средней Азии (Туркестан, Закаспийская область, Бухара, Хива) и его будущее. – Санкт-Петербург, 1892; Лавров А.И. Записка по вопросу о постройке Среднеазиатской железной дороги от Кизил-Арвата до Ташкента. – Санкт-Петербург, 1894; Олсуфьев А.А., Панаев В.П. По Закаспийской военной железной дороге. Путевые впечатления. – Санкт-Петербург, 1899.

<sup>12</sup> Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару с русской миссией в 1870 году. – Санкт-Петербург, 1871. – 107 с.; Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе. С приложением списка населенных мест округа // Записки императорского русского географического общества по отделению статистики. Т. IV. – СПб., 1874. – 404 с.; Снесарев А. Восточная Бухара. – Санкт-Петербург, 1905. – 283 с.

<sup>13</sup> Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX столетия до первой мировой войны). – Ташкент, 1959. – 298 с.; Аминов А.М., Бабаходжаев А.Х. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Ташкент: Узбекистан, 1966. – 210 с.; Бунаков Е.В. К истории отношений России со среднеазиатскими ханствами в XIX в // Советское востоковедение. – М., 1941. Вып. 2. – С. 24; Иноятлов Х. Очерки по истории Средней Азии XVII – середина XIX вв. – М.: Восточная литература, 1958. – 247 с.; Хальфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии. – М.: Наука, 1974. – 406 с.

<sup>14</sup> Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века. Ч. I. – Душанбе, 1962. – 355 с.; Кастальский Б.И. Историко-географический образ Сурханской и Ширабадской долины // Вестник ирригации. – Ташкент, 1930. – С. 24-30; Маджлисов А. Аграрные отношения в восточной Бухаре в XIX – начале XX вв. – Душанбе-Алма-Ата: Ирфон, 1967. – 337 с.

<sup>15</sup> Рemez И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: Издательство ЦСУ Туркеспублики, 1922. – 132 с.; Щейко К.А. Из истории присоединения Термеза к России // Краеведение Сурхандарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 117-140; Хакимова К.З., Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1980. – 175 с.; Соколов А.Я. Торговая политика России в Средней Азии и развития русско-афганских торговых отношений. – Ташкент: Фан, 1971. – 172 с.



Buxoro amirligida Rossiya mustamlakachilik imperiyasi va sovetlar hukumati tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosati, rus harbiy garnizonlarining joylashishi, bojxona tizimi, paxta yakka hokimligining shakllanishi, Kogon-Termiz temir yo'lining qurilishi kabi masalalar Z.K. Axmedjanova, A.P. Demidov, O.A. Suxareva, T.G. To'xtametov, V. Kozlovskiy, A.R. Muhammadjonov, T.N. Ne'matovlarning ilmiy tadqiqotlari va monografiyalarida bayon etilgan<sup>16</sup>. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarixini o'rganishda sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar muhim manba hisoblanadi. Sovetlar hukmronligi davrida yozilgan asarlar va tadqiqotlarning bir yoqlama xususiyatini inobatga olgan holda tadqiqot jarayonida ushbu manbalar chuqur tahlil etilib, ularning ma'lumotlaridan unumli foydalanildi.

*Uchinchi guruhga* mansub mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlarda amirlikning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti va iqtisodiy ahvoli, madaniy hayotining ayrim jihatlarini xolis hamda tarixiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Bu davr olimlaridan – O'. Ahmadjonov, X. G'ulomov, H. Bobobekov, Sh. Vohidov, Q. Rajabov, S. Inoyatov, K.Z. Hakimova, Azamat Ziyo, N. Abdurahimova, F. Ergashevlarni<sup>17</sup> ta'kidlash o'rinlidir. H.Z. Ziyoyev asarlarida O'rta Osiyo davlatlari, xususan, Buxoro amirligining Rossiya bilan olib borgan siyosiy aloqalari va Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning istilo qilinishini yoritish bilan bir qatorda bu ikki hudud o'rtasidagi savdo aloqalari haqida muhim ma'lumotlar uchraydi<sup>18</sup>. G.A. Agzamova o'z tadqiqotlarida O'rta Osiyo xonliklarining shaharlari hayoti, hunarmandchilik va savdoning holati, shuningdek, Rossiya bilan iqtisodiy aloqalari, hududlarni o'zaro bog'lovchi yo'llar va ularning faoliyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatib berishga harakat qilgan<sup>19</sup>.

Shuningdek, Buxoro amirligi savdo munosabatlari tarixiga oid ilmiy ishlar ham himoya qilingan. Jumladan, D.X. Razzoqov, F.B. Ochildiyev, Sh.S. Shodiyeva, Sh.Y. Qudratov, Sh.G'. Dovurovalarning dissertatsiyalarida asosiy e'tibor

---

<sup>16</sup> Axmedjanova Z.K. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917). – Ташкент: Наука, 1965. – 214 с; Демидов А.П. Экономический очерк хлопководства, хлопкоплетения и хлопковой промышленности Туркестана. – М., 1922. – 249 с.; Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара конце XIX – начале XX вв. Ремесленная промышленность. – Ташкент, 1962. – 193 с.; Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарское отношения в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1966. – 177 с.; Козловский В.А. Термиз шахрининг тарихи. – Тошкент, 1959. – 32 б; Муҳаммаджонов А.Р., Неъматов Т.Н. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент, 1957. – 223 б.

<sup>17</sup> Аҳмаджонов Ф.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Тошкент, 2003. – 270 б.; Воҳидов Ш.Х. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Тошкент, 1996. – 45 б.; Ражабов Қ., Иноятлов С. Бухоро тарихи. – Тошкент, 2016. – 460 б.; Ҳақимова К.З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIV-начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1991. – 114 с.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 368 б.; Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда Чор мустамлака тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 240 б.

<sup>18</sup> Зиёев Ҳ.З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 480 б.

<sup>19</sup> Агзамова Г. А. Среднеазиатские центром торговли и пути, связывавшие их с Россией (вторая половина XVI – первая половина XIX в.): Дисс... канд. ист. наук. – Тошкент: Инс. Истории АН РУз, 1990. – 195 с.; Ўша муаллиф. О караванных путях из Хивы в Оренбург // Общественине науки в Узбекистане. – Тошкент, 1991. № 12. – С. 43-48; Ўша муаллиф. К истории торговли Бухари XVI – первой половины XIX века // Общественине науки в Узбекистане. – Ташкент, 1991. №9,10,11. – С. 56-63; Ўша муаллиф. XVI-XIX асрининг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти: Тарих фан. докт. дисс. – Ташкент: ЎзРФА Тарих институти, 2000. – 348 б.

amirlikning markaziy hududlaridagi savdo tarixiga bag'ishlangan<sup>20</sup>. Buxoro amirligida, xususan, Surxon vohasida savdo munosabatlari tarixi S.N. Tursunov, R. Xoliqova, E.A. Qobilov, N.N. Tursunov, X.E. Xolmo'minovlar tomonidan yozilgan monografiyalarda ham qisman bo'lsa-da yoritilgan<sup>21</sup>.

Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda amirlik tarixining ayrim masalalari chuqur, keng qamrovli, mahalliy va boshqa toifadagi manbalar ma'lumotlari asosida yoritilganligi, sifat jihatidan oldingi davrlarda yaratilgan tadqiqotlardan ajralib turishi bilan e'tiborga loyiqdir. Ammo, ularda o'rganilgan masalalar amirlikdagi savdo munosabatlarining biror-bir jihati bilan o'zaro bog'liqlikda tadqiq etilmagan. Shuningdek, bu davrda ham Buxoro amirligining sharq davlatlari bilan savdo aloqalarida muhim o'rin tutuvchi Surxon vohasiga tadqiqot mavzusi sifatida e'tibor qaratilmagan.

*To'rtinchi guruh* xorijiy tillardagi adabiyotlar turkumini M. Xoldsvort, G. Meyyendorf, G. Bonvalot, Jorj Fredrik Rayt, J. Kunits va hokazo tadqiqotchilar asarlari tashkil etadi<sup>22</sup>. Mazkur olimlar ishlarida Buxoro amirligining davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tarixi, jumladan, ichki va tashqi savdo aloqalari masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, Meri Xoldsvort asarlarida Buxoro-Afg'oniston, Buxoro-Eron o'rtasidagi elchilik munosabatlari, amirlikning tashqi savdo aloqalariga doir ma'lumotlar keltirilgan<sup>23</sup>.

Jorj Frederik Raytning "Rossiya Osiyosi" asarida Buxoroning Rossiya, Afg'oniston, Eron va Hindiston bilan munosabatlari haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan<sup>24</sup>. Joshua Kunitning "Samarqand bo'ylab tong, O'rta Osiyoning qayta tug'ilishi" nomli asarida Buxoro amirligida amirning hokimiyati mutlaq ekanligi, turli muassasalar boshliqlari, hokimlarning amir tomonidan tayinlanishi,

---

<sup>20</sup> Раззоков Д.Х. Бухоро хонлигининг ташқи савдо алоқалари (XIX асрнинг 60-90 йиллари). Тарих фанлари номзоди дисс – Тошкент, 1994. – 190 б.; Очилдиев Ф.Б. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигида ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. Тарих фанлари доктори(DSc) дисс. – Тошкент, 2022. – 260 б.; Шодиева Ш.С. Бухоро амирлигининг Усмонийлар империяси билан ўзаро муносабатлари тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 54 б.; Қудратов Ш.Ё. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигида савдо алоқалари ва тadbirkorlik тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022. – 56 б.; Давурова Ш.Х. Бухоро амирлиги савдо муносабатлари тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2023. – 54 б.

<sup>21</sup> Турсунов С., Қобилов Э. ва бошқ. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 384 б.; Турсунов С., Қобулов Э. ва бошқ. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 606 б.; Турсунов С., Турдиев Т. Денов. – Тошкент: Фан, 2009. – 495 б.; Турсунов С., Қобулов Э. ва бошқ. Термиз тарихи. – Тошкент: Янги нашр, 2019. – 288 б.; Холикова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 240 б.; Қобулов Э. Сурхондарё саноатининг илк одимлари. – Термиз: Жайхун, 1993. – 30 б.; Қобилов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 408 б.; Қобулов Э.А., Қобулов К.Э. Манғитлар ҳукмронлиги даврида Сурхон воҳасида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Монография. – Тошкент: NIF MSH, 2023. – 380 б.; Турсунов Н.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари аҳолиси моддий маданияти: анъаналар ва трансформацион жараёнлар (XIX-XXI аср бошлари). Монография. – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2023. – 380 б.; Xolmuminov X.E. Buxoro amirligi janubiy hududlaridagi tarixiy demografik jarayonlar (XIX asr ikkinchi – XX asr boshlari Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari misolida). Monografiya. – Toshkent: Firdavs Shoh nashriyoti, 2023. – 218 б.

<sup>22</sup> Holdsworth. Turkestan in the nineteenth century. A Brief history of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959. Introduction; Meyendorf G. Voyage d Orenburg a Bouckara fait en 1820. – Paris, 1826; Bonvalot G. Through the heart of Asia. Over the Pomir to India. Vol.II. – London, 1889. – 249 p; Wright George Fredorick. Asiatic Russia. – New York, 1903. 2 vols; Kunits J. Dawn over Samarkand The reirth of Central Asia. – New York, 935. – P. 22-23.

<sup>23</sup> Holdsworth. Turkestan in the nineteenth century. A Brief History of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959.

<sup>24</sup> Wright George Fredorick. Asiatic Russia. – New York, 1903. 2 vols.

davlatning ma'muriy jihatdan viloyatlar, tumanlar va qishloqlarga bo'linishi hamda ularning boshqaruvi ma'muriy amaldorlar, beklar, amlokdorlar, oqsoqollar qo'lida ekanligi tavsiflangan<sup>25</sup>.

Mavzuning tarixshunosligiga doir adabiyotlar va materiallarning tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, Buxoro amirligi tarixiga oid yaratilgan asarlar, tadqiqotlarda asosiy e'tibor Buxoroning siyosiy tarixi, davlat tuzilishi, ma'muriy boshqaruvining xususiyatlari, savdo munosabatlari tarixiga oid tadqiqotlarda esa markaziy bekliklar faoliyatiga e'tibor qaratilgan. Ammo amirlik savdo munosabatlari tarixida Surxon vohasining tutgan o'rnini ochib berishga qaratilgan alohida tadqiqotlar olib borilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Termiz iqtisodiyot va servis universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq, "O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirish muammolarini kompleks tadqiq etish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rnini tarixiy nuqtai nazardan ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** sifatida quyidagilar belgilandi:

Buxoro amirligi tarixiga oid manba va adabiyotlarni qiyosiy o'rganish asosida, Surxon vohasining ma'muriy-boshqaruv tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ilmiy jihatdan tahlil etish;

Sherobod, Boysun, Denov, Yurchi bekliklari va Termiz shahrining ichki va tashqi savdodagi o'rni hamda amirlikning iqtisodiy hayotidagi mavqeyini aniqlash; savdo infratuzilmasining muhim komponenti bo'lgan bozorlar va karvonsaroylarning aholining kundalik turmush tarzida tutgan ahamiyatini ko'rsatib berish;

boj-soliq tizimi, turlari va bojxonalar faoliyatini ilmiy tahlil qilish;

tashqi va ichki savdo munosabatlarida turli elatlar, ijtimoiy tabaqa vakillari roli hamda ishtirokini tadqiq etish;

XVIII-XX asr boshlarida Surxon vohasida Amudaryo suv yo'li va kechuvlari orqali mahalliy kemalar qatnovi va yuk tranzitida qo'shni davlatlar bilan tashqi savdo aloqalarini o'rganish;

amirlikdagi ingliz-rus qarama-qarshiligi hamda Rossiya mustamlakachilik imperiyasining sanoat va transport tizimi sohalarida amalga oshirgan tadbirlarining o'lka iqtisodiy, siyosiy hayotidagi o'rnini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Buxoro amirligi davrida (XVIII-XX asr boshlarida) Surxon vohasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, savdo yo'llari kommunikatsiyasining rivojlanish tarixi belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rni, hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni amalga oshirishda xolislik, tarixiylik, davriy va hududiy-geografik, qiyosiy tahlil, statistik, ilmiy izchillik usullaridan foydalanilgan.

---

<sup>25</sup> Kunitis J. Dawn over Samarkand The reirth of Central Asia. – New York, 1935. – P. 22-23.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Buxoro amirligi va Sharq davlatlari bilan transmintaqaviy savdo munosabatlarida (ham quruqlik, ham suv yo'llari) Surxon vohasi alohida o'rin tutib, hudud Termiz, Denov, Sherobod, Boysun, Yurchi kabi shaharlar savdo yo'llari ustida qurilgan infrastruktura tarmoqlari negizida shakllanishi barobarida uning Turkiston o'lkasining muhim madaniy markazlari sifatida ham ta'sirga ega bo'lganligi dalillangan;

Mintaqaning savdo va madaniy aloqalar tizimida mahalliy o'zbek, tojik va turkman xalqlari bilan birga turli sabablar bilan hududga kelib qolgan yahudiy, afg'on, fors, rus, tatar hamda boshqa etnos vakillarining savdo munosabatlarida faol ishtiroki xalqaro savdodagi tovarlar nomenklaturasi va bozorlar miqyosiga ta'sir qilish jarayonida, turli madaniy an'analar va qadriyatlarning uyg'unlashishiga ham xizmat qilganligi asoslangan;

Rossiya imperiyasidagi zavod va fabrikalaridan hamda Hindistondan zargarlik buyumlarini importi oqibatida savdo mahsulotlari ko'payishi va rang-barangligi mahalliy hunarmandlar mahsulotlarini o'rnini bosib, kasod bo'lishiga olib kelgani dalillangan. Shu bilan birgalikda hunarmandchilik mahsulotlarni raqobati bir muncha vaqt o'tgach, madaniy simbioz hosil qilishi aniqlangan.

Surxon vohasi iqtisodiy hayotida tashqi savdoning o'rni, import va eksport mahsulot turlarining o'zgarib borishi natijasida savdo infratuzilmasining muhim komponentlari – bozorlar, karvonsaroilar faoliyatida muhim transformatsion jarayonlar yuz berishi oqibatida, ularning faoliyati faqatgina yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bilan cheklanib qolganligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Surxon vohasida savdo kommunikatsiyalari tizimi, turizm, temir yo'l transporti turli yo'nalishlarida erishilgan natijalar tahlil etilib, aniqlangan muammolar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Buxoro amirligi davrida savdo aloqalarining Surxon vohasida tutgan o'rni haqida Rossiya mustamlakachiligi, sovet davri va mustaqillik yillari tarixiga doir arxiv hujjatlaridan foydalanilgan holda bir qator ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan.

Surxon vohasida savdo aloqalari tarixiga doir ma'lumotlar tahlili misolida vatanimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo munosabatlarining amalga oshirilishi va uning natijalari ko'rib chiqilib, ular asosida Surxondaryo tarixini o'qitish va o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, ko'plab birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani hamda xulosa, taklif, tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy izlanishlar natijasida mang'itlar hukmronligi davrida Surxon vohasining savdo aloqalariga doir qo'lga kiritilgan ilmiy ma'lumotlar, mamlakatimizda savdo tizimi, jumladan savdo kommunikatsiyalari, pul tizimi, soliq, boj turlari, bozorlar, karvonsaroilar tarixini, shuningdek, O'zbekistonning

savdo infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi borasidagi ilmiy qarashlarni yanada takomillashtirilishida xizmat qilishi bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** Buxoro amirligi davrida Surxon vohasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixiga oid aniqlangan ma'lumotlari va xulosalar, amaliy tavsiyalar respublika oliy ta'lim muassasalarning tarix yo'nalishi talabalariga savdo munosabatlari sohasi tarixini o'qitishda, O'zbekiston tarixi fani bo'yicha tarmoqli maxsus kurslar tashkil etish, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rnini o'rganilishi tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Buxoro amirligi va Sharq davlatlari bilan transmintaqaviy savdo munosabatlarida (ham quruqlik, ham suv yo'llari) Surxon vohasi alohida o'rin tutib, hudud Termiz, Denov, Sherobod, Boysun, Yurchi kabi shaharlar savdo yo'llari ustida qurilgan infrastruktura tarmoqlari negizida shakllanishi barobarida uning Turkiston o'lkasining muhim madaniy markazlari sifatida ham ta'sirga ega bo'lganligi haqidagi natijalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 15-fevraldagi 02-02/02-son ma'lumotnomasi). Natijalatning qo'llanilishi mamlakatimizda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilgan;

Mintaqaning savdo va madaniy aloqalar tizimida mahalliy o'zbek, tojik va turkman xalqlari bilan birga turli sabablar bilan hududga kelib qolgan yahudiy, afg'on, fors, rus, tatar hamda boshqa etnos vakillarining savdo munosabatlarida faol ishtiroki xalqaro savdodagi tovarlar nomenklaturasi va bozorlar miqyosiga ta'sir qilish jarayonida, turli madaniy an'analar va qadriyatlarning uyg'unlashishiga ham xizmat qilganligi haqidagi natijalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 15-fevraldagi 02-02/02-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi belgilangan chora-tadbirlarni ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshirish imkonini bergan;

mazkur davrda O'rta Osiyo xonliklaridagi beqaror siyosiy vaziyat xalqaro savdo munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, XIX asrning birinchi choragidan boshlab O'rta Osiyo bozorini egallash uchun ingliz-rus raqobatining yuzaga kelishi natijasida savdo sohasidagi tashqi hamkorlar, savdo mollarining assortimenti, hududdagi savdo markazlarining rolini o'zgarishiga olib kelganligi bo'yicha natijalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqqimot" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTRKning 2024-yil 19-martdagi 02-31-398-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvning ilmiy saviyasi va axloqiy-estetik tarbiyaviy ahamiyati oshishiga xizmat qilgan.;

Surxon vohasi iqtisodiy hayotida tashqi savdoning o'rni, import va eksport mahsulot turlarining o'zgarib borishi natijasida savdo infratuzilmasining muhim komponentlari – bozorlar, karvonsaroylar, bojxonalar faoliyatida muhim

transformatsion jarayonlar yuz berishi oqibatida, ularning faoliyati faqatgina yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bilan cheklanib qolganligi haqidagi natijalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zMTMKning 2024-yil 19-martdagi 02-31-398-son ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi teletomoshabinlarda Mang'itlar hukmronligi davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rniga oid tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari jami 10 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (ulardan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarida) maqola, 10 ta (ulardan 5 tasi xalqaro va 5 tasi respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislari e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, sakkiz paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 124 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Surxon vohasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli"** deb nomlangan birinchi bobida Surxon vohasi bekliklarining ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimi, aholi etnik tarkibi, joylashuvi va iqtisodiy sharoiti to'g'risida Buxoro amirligining tashkil topishidan to Sovet davrigacha bo'lib, mahalliy tarixchilar, O'rta Osiyo muarrixlari, XVIII-XIX asrlar oralig'ida amirlikda bo'lgan yevropalik hamda rossiyalik elchi, sayyoh, savdogar, olim va boshqa shaxslarning xotiralari, rasmiy xabarlari va tarixiy asarlari, arxiv hujjatlariga oid ma'lumotlar asosida bayon etilgan.

Ushbu bob ikki paragrafdan tashkil topgan bo'lib, birinchi paragrafi **"Vohaning ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimi, aholining etnik tarkibi va joylashuvi"**ga bag'ishlangan. Mavzuga oid manbalarni mahalliy yozma manbalar, Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davrida chop etilgan adabiyotlar, Sovetlar hukmronligi davrida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va tarixiy

adabiyotlar, mustaqillik yillaridagi ilmiy izlanishlar va xorijiy adabiyotlar tarixshunosligi tashkil etadi.

Ma'lumki, Buxoro amirligi (1753-1920-yy) monarxik boshqaruv tizimiga asoslangan bo'lib, davlat boshlig'i amir hisoblangan. Viloyatlarni beklar boshqarishgan va ular amirga bo'ysunishgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida amirlikda 20 ta mustaqil beklik va 9 ta mustaqil tuman<sup>26</sup>, 1915-yilda amirlikda 27 beklik (viloyat) va 11 ta tumandan iborat edi<sup>27</sup>. Ko'rinib turibdiki, Buxoro amirligida sodir bo'lgan turli siyosiy-iqtisodiy jarayonlar natijasida ma'muriy tuzilishda ba'zan o'zgarishlar ham sodir bo'lgan.

XIX asr oxiri – XX boshlariga kelib, Surxon vohasida uchta beklik bo'lib, bular Denov bekligi 11 amloliklik, Boysun bekligi 7 amloliklik va Sherobod bekligi 5 amloliklikdan tarkib topgan, ularda 200 mingdan ortiq kishi istiqomat qilgan<sup>28</sup>. Har bir beklik o'ziga topshirilgan hududda ma'muriy, sud, mirshablik va moliya ishlarini o'z qo'lida saqlab turgan<sup>29</sup>. Beklik amlokdorliklarga bo'linib, ularni amlokdor boshqargan va u bekka itoat etgan. Amlokdorning vazifasi o'z tumanidagi aholidan turli-tuman soliq va yig'implarni to'plagan. Amlokdor yetishtirilgan hosil miqdorini aniqlash va soliqni belgilab, undirib olingandan so'ng, uni bek ixtiyoriga yuborgan. Masalan, Denov bekligining Xayrabod amlokdori 6290 tanga xiroj, 9400 tanga kafsani yig'ib olib, bek xazinasiga yuborgan<sup>30</sup>. Amlokdorga amin va oqsoqol bo'ysungan. Amlokdorga oqsoqollar qishloqni ma'muriy, xo'jalik va ijtimoiy jihatdan boshqarishda yordam berganlar<sup>31</sup>.

Xullas, Buxoro amirligida bekliliklarning ma'muriy boshqaruvi beklik markazi va u bilan tutashgan amlolikliklarning joylashuvi, xo'jalik faoliyati, aholi soni, etnik tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bo'yicha o'rganilgan manbalar ilmiy tadqiqot jarayonida tahlil etildi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va soliq turlari”** deb nomlanib, unda Sharqiy Buxoro amirligi bekliliklarida mulkchilikning vujudga kelishi, soliqlarning turlari, to'lov tizimi va aholi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari masalalariga bag'ishlangan.

Buxoro amirligida 50 ga yaqin soliq va to'lovlar amalda qo'llanilgan: xiroj, boj, alaf puli, bog' puli, chorbog' puli, ajnos puli, qovun puli, uskuna puli, sanjit pul, qo'sh puli, zakot chakana va aminona kabi<sup>32</sup>. Savdo karvonlarida boj solig'i bo'lib, u odatda tuya, ot, qo'ylar va boshqa shaxsiy ulovlardan Buxoro amirligining qo'shni Xiva, Qo'qon xonliklari hamda boshqa Eron, Afg'oniston davlatlarining chegara hududlaridan o'tishda belgilangan soliqdir<sup>33</sup>. Sherobod, Boysun, Denov

<sup>26</sup> Холикова Р.Э. XIX-XX аср бошларида Россия-Бухоро муносабатлари. Докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 21.

<sup>27</sup> Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар. – Тошкент, 2008. – Б. 52-53.

<sup>28</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 44.

<sup>29</sup> О'з МА. I-126-jamg'arma, 2-ro'yxat, 3-ish, 26-varaq.

<sup>30</sup> О'з МА. I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1263-ish, 10-varaq.

<sup>31</sup> Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 73.

<sup>32</sup> Очилдиев Ф.Б. XIX-XX аср бошларида Жанубий Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 72.

<sup>33</sup> Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.1. – СПб., 1911. – С. 56.

bekliklarida bojxona manzilgohlari bo'lgan. Bojxona manzilgohlaridan eng yiriklaridan biri, bu Hisor-Baljuvon bekligi chegarasidagi Puli-Sangin bo'lsa<sup>34</sup>, Denov bekligiga qarashli Mirshodi bojxona manzilgohi ham yirik hisoblangan<sup>35</sup>. Mirshodi bojxonasidan yiliga 10 mingdan 20 mingga chorva mollari ro'yxatga olingan<sup>36</sup>.

Xullas, Boysun, Sherobod va Denov bekliliklarida mang'itlar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda bir qator yuksalishlar ham bo'lib o'tgan. Buxoro amirligida bekliliklarning ma'muriy boshqaruvi va amlokliklarning joylashuvi, xo'jalik faoliyati, aholi soni, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, bekliliklardagi moliya va soliq tizimi kabi masalalar tadqiqotda arxiv ma'lumotlari va tarixiy manbalar asosida tadbqiqilindi.

Dissertatsiyaning **“XVIII asr o'rtalari - XX asr boshlarida savdo yo'llari kommunikatsiyasida Surxon vohasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro amirligi sharqiy bekliliklarining savdo yo'llari va iqtisodiy aloqalaridagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Ushbu bobning birinchi paragrafi **“Karvon yo'llari va karvonsaroylar”** deb yuritilib, unda savdo munosabatlarining karvon yo'llari bilan bog'liqligi jihatlari bayon etilgan.

Buyuk Ipak yo'lining O'rta Osiyodan, jumladan, Buxoro amirligi hududidan o'tishi bu yo'lining qadimgi Sharq, G'arb, Shimol va Janub mamlakatlari xalqlarining o'zaro aloqalari bog'lanishi to'g'risidagi ma'lumotlar ishda o'z aksini topgan. Karvon yo'llarining tashkil topishi va rivojlanishida, yo'llar yoqasida joylashgan shaharlar va yirik qishloqlarning, balki hududda paydo bo'lgan bozorlar, sardobalar, karvonsaroylar, ko'priklar va boshqa inshootlarning o'rni ham muhim bo'lgan. Karvon yo'llari nafaqat, iqtisodiyotni rivojlanishiga, balki savdo yo'llarida yashovchi aholining ijtimoiy ahvolini ham yaxshilanishiga olib kelgan<sup>37</sup>. O'rganilayotgan hududda XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida o'tgan tranzit savdo yo'llari o'zining ahamiyati va yirikligiga qarab, bir necha guruhlarga bo'linishi mumkin:

1. Hududni qo'shni hududlar bilan bog'lovchi tranzit yo'llar;
2. Hududning yirik shaharlarini o'zaro bog'lovchi tranzit yo'llar;
3. Shaharlarni qishloqlar va konlar bilan bog'lovchi tranzit yo'llar;
4. Qishloqlarni o'zaro bog'lovchi tranzit yo'llar.

Savdo yo'llari kommunikatsiyasi tizimida karvonsaroylarning alohida o'rni bor. Karvonsaroylar, asosan, pishiq g'ishtdan qurilgan<sup>38</sup>. XIX asrning o'rtalarida Denovda 5 ta, Sherobodda 3 ta, Boysunda 2 ta karvonsaroy bo'lgan. Har bir karvonsaroyda 1500-2000 tuya sig'ishi, olib kelingan tovarlardan boj va zakot ham shu yerda olingani qayd etib o'tiladi<sup>39</sup>. Odatda, savdo yo'llari atrofida o'nlab rabotlar, karvonsaroylar, sardobalar, korizlar, quduqlar qurilgan. Masalan, Beshqo'ton, Toshkent, Oqtosh, Qorakamar yo'li bo'yida joylashgan karvonsaroylar

<sup>34</sup> Туркестанские ведомости. 1906. № 8.

<sup>35</sup> Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века. Ч.I. – Д., 1962. – С. 66.

<sup>36</sup> Полк. Галкин. Военно-статистический очерк Средней и Южных частей Сурханской долины // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. 57. – СПб., 1894. – С. 377.

<sup>37</sup> Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. – Ташкент: Фан, 1984. – С. 76.

<sup>38</sup> Маньковская Л.Ю. Типологическая основы зодчества Средней Азии (IX – нач. XX вв.). – Ташкент, 1980. – С. 54.

<sup>39</sup> Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссией в 1870 г. – СПб., 1871. – С. 87.



xavfsizlikni hamda savdogarlarni ichimlik suvi bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan<sup>40</sup>.

Surxon vohasidan Buxoroga boruvchi savdo yo'llari, asosan, ikki yo'nalishda bo'lgan. Birinchisi, Amudaryo sohillaridan boshlanib, hozirgi Turkmanistonning Kelif va Kerki shaharlari orqali bo'lsa, ikkinchisi, Temir darvoza, Oqrabot, G'uzor va Qarshi orqali bog'langan. Birinchi yo'ldan, asosan, qish mavsumida foydalanilgan bo'lsa, ikkinchisidan yoz mavsumida foydalanilgan<sup>41</sup>. Shuningdek, yana bir tranzit savdo yo'li Surxon vohasini Samarqand, Toshkent, Farg'ona bilan bog'lagan bo'lsa, ikkinchi tomondan Afg'oniston, Eron shaharlari bilan bog'lagan<sup>42</sup>. Surxon vohasini Samarqand bilan bog'lovchi eng qisqa karvon yo'li Taxi Qoracha dovoni orqali o'tgan Termiz Samarqand yo'li hisoblanadi. Ushbu karvon yo'li rus hukumati tomonidan XX asr boshlarida qayta ta'mirlanib, Samarqand-Termiz pochta yo'li vazifasini o'tagan<sup>43</sup>. Vohani karvon yo'li Qobul, Termiz, G'uzor, Shahrisabz, Samarqandgacha bog'lagan<sup>44</sup>. Karvon yo'llari farsangah, tosh, verst va boshqa o'lchamlarda o'lchangan. V.V. Bartoldning ta'kidlashicha, karvonning bir soatlik yo'l bosishi 5-8 verstga teng bo'lgan, bir farsah 6 kilometrga teng bo'lgan. O'rta Osiyoda bir farsah 8 kilometrga teng bo'lgan. Bir yog'och karvon yo'li 9 kilometrga teng bo'lgan. Bir tosh yoki bir farsah 8 verstga teng bo'lgan. Bir verst bir kilometrdan ko'proq bo'lgan<sup>45</sup>.

Xullas, Surxon vohasining Denov, Termiz, Sherobod shaharlari iqtisodiy jihatdan rivojlangan shaharlarga aylandi. Shaharlar, o'zining bozorlari, madrasalari, hammomlari, choyxona va oshxonalari bilan muhim iqtisodiy, madaniy markazlar sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida savdo munosabatlarining kuchayib borishi natijasida har bir shahar savdo markaziga aylanib borgan. Bu jarayon vohada bozorlarning mahsuloti turiga qarab, ixtisoslashib borganligini ko'rsatadi. Masalan, Qarshi, Sherobod, Termiz shaharlari qishloq xo'jaligi, chorva va xorijiy savdo mollari sotiladigan markazlarga aylanib borganligi tadqiqot ishida ilmiy tahlil etildi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi **“Suv yo'llari va kechuvlar”** deb nomlangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi savdo aloqalarida Amudaryo suv yo'li va kechuvlarining muhim o'rni bo'lgan. Amudaryo daryo bo'yidagi davlatlar va shaharlari bilan aloqa qiluvchi vosita bo'lib qolmay, balki o'sha vaqtda daryoni kesib o'tuvchi savdo yo'llarini o'zaro bir-biri bilan bog'lagan. Chunki, Rossiyadan keltirilgan tovarlarning asosiy qismi Amudaryo kechuvlari orqali Afg'onistonga yetkazilgan<sup>46</sup>.

<sup>40</sup> Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиши босқичлари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 276-278.

<sup>41</sup> Сагдуллаев А.С. К эволюции древнейших путей..., указ.соч. – С. 17.

<sup>42</sup> Костенко Л.Ф. Туркестанский край. Материалы для географии и статистики России.Т., I. – СПб., 1880. – С. 135.

<sup>43</sup> Вяткин В.Л. Каршинский округ, организация в нем войска и события в период 1215-1217 (1800-1803) годов. Отдельный оттиск из XVIII тома. «Известия среднеазиатского отдела государственного Русского географического общества». – Ташкент, 1928. – С. 21.

<sup>44</sup> Маев Н. Очерки горных бекств. Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Вып.V. – СПб, 1879. – С. 321.

<sup>45</sup> Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. – Сочинения. Т.III. – М.: Наука, 1965. – С. 119.

<sup>46</sup> Қабулов Э.А. XVIII асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида Сурхон воҳаси ҳўжалиги. Тарих фанлари доктори (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 223.

O'rganilayotgan davrda savdo yo'llari Amudaryoning Chorjo'y, Karki, Kelif, Cho'chqaguzar va Pattakesar kabi muhim kechuvlardan o'tgan. Ushbu kechuvlar ikki qirg'oqni bog'lab, odamlar hamda savdo yuklarini tashishda xizmat qilgan. Amudaryo suv kechuvlaridan faqatgina Cho'chqaguzar va Pattakesar suv kechuvlari Surxon vohasi hududiga to'g'ri kelgan<sup>47</sup>. Mahalliy eng katta kemalar palubasiz, to'rt burchakli, 25 m uzunlikda bo'lib, 60 tonnaga yaqin yuk ko'targan<sup>48</sup>. Har bir katta kemada 6-7 kishi, o'rtacha kemada 5 kishi ishlagan. Tushumning faqat 25 foizi kemachilar foydasiga qoldirilib, qolgan qismi hukumat foydasiga undirilgan<sup>49</sup>.

XIX asr oxirida, kechuvlardagi narxlar amir qushbegisi tomonidan nazoratga olingan. Masalan, bir odamdan 15 tiyin, qo'y va echkidan 5 tiyin, ot, tuya va qoramoldan 15 tiyin kira haqi olingan. Cho'chqaguzar kechuvida ot, tuyalar uchun bir tanga, yo'lovchi uchun 16 chek, ya'ni 6,5 kopeyek olingan<sup>50</sup>. Pattakesar bojxonasining kechuvida jami yuk aylanmasi 715 ming rublni tashkil etgan<sup>51</sup>. Shuningdek, Pattakesar kechuvidan qo'ylarga qaraganda, yiliga 30-40 ming bosh qora mol o'tkazilgan<sup>52</sup>.

Podsho Rossiyasi tomonidan rus flotiliyasi tashkil etgandan so'ng, Pattakesar kechuvining tranzit aloqalaridagi ahamiyati yanada ortdi. Ushbu hududda yangi ulgurji savdo omborxonalari, Afg'onistondan keladigan paxtani qayta ishlaydigan paxta tozalash korxonasi qurildi<sup>53</sup>. 1903-yilda Termiz shahri orqali 23 million rubllik mahsulotlar tashqi bozorga chiqarilgan. Amudaryo flotiliyasining tashkil topishi mintaqada Rossiya mustamlakachilik imperiyasining Afg'oniston va Angliyaga qarshi strategik tayanchiga aylangan edi. Daryoda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun 1884-1895-yillarda Karkidan 222 verst uzoqlikda Amudaryoning yuqori oqimida Yangi Termiz shahri qurila boshlandi<sup>54</sup>. Paroxodlar yoz oylarida Chorjo'ydan Termizgacha masofani 7 kunda, qishda 11 kunda bosib o'tgan<sup>55</sup>. Suv yo'li rus hukumati uchun ham, Buxoro amirligi uchun ham muhim ahamiyatga ega edi. Tashiladigan yuklarning narxi quruqlikdagiga nisbatan 3-4 baravar arzonaga tushgan.

Surxon vohasida savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishida Amudaryo suv yo'lining ahamiyati katta edi. Amudaryoda rus flotiliyasining tashkil topishi hududda savdo aloqalaridan ko'ra, Rossiyaning harbiy manfaatlariga ko'proq xizmat qilishi to'g'risidagi ma'lumotlar dissertatsiyada ilmiy qiyosiy jihatdan o'rganildi.

<sup>47</sup> Кап. Быков. Очерк переправ через реку Амударьи. – Ташкент, 1879. – С. 8-9.

<sup>48</sup> Жабборов Исо. Ўзбеклар: анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти. – Тошкент: Шарк, 2008. – Б. 74.

<sup>49</sup> Кап. Быков. Очерк переправ через реку Амударьи. – С.8-9.

<sup>50</sup> Сов. Петров. Путевые заметки классного топографа. // Сб.геогр. топог. и статист. мат. по Азии – СПб., 1886. – С. 80.

<sup>51</sup> Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: Издательство ЦСУ Туркеспублики, 1922. – С. 37-38.

<sup>52</sup> О'з МА. 1396-jamg'arma, 2-ro'yhat, 515-2-ish, 80-varaq.

<sup>53</sup> О'з МА. I-1-jamg'arma, 27-ro'yhat, 408-ish, 13-varaq.

<sup>54</sup> Турсунов С.Н., Қобулов Э.А. ва бошқ. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: Шарк, 2004. – Б. 193-195.

<sup>55</sup> Гаевский И. Курган-Тюбинское бекство // Изв. РГО. Т.55. – СПб., 1919. – С. 44.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi **“Savdo aloqalarining rivojlanishida temir yo‘llarining o‘rni va hududda rus manzilgohlarining paydo bo‘lishi”**da vohada qurilgan temir yo‘llar va aholi manzilgohlaridagi o‘zgarishlar tadqiq qilingan.

Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyo hududlarini egallagach, rus burjuaziyasi o‘lkaga xomashyo etkazib beruvchi va o‘z mollarini sotish uchun juda katta ichki bozor sifatida qaragan<sup>56</sup>. 1892-yilda Rossiya hukumati tomonidan yig‘ilishda Markaziy Osiyo hududidagi vaziyatni hisobga olgan holda, asosan, Termiz orqali yuk tashish va xomashyo olib ketishni ko‘paytirish maqsadida Buxoro-Termiz, Termiz-Hisor, Termiz-Ko‘lob temir yo‘li qurilishi muhokama qilindi va qurishni tezlashtirishga e‘tiborni qaratdi. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni, xususan, Termiz hududini, o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda egallaydi. Masalan, Termiz shahriga oid hujjatlarda ko‘rsatilishicha, dastlab 600 xonadonni, keyinchalik 10000 xo‘jalikni ko‘chirib keltirish rejalari tuzilgan<sup>57</sup>. 1897-yilda Pattakesar yonida rus manzilgohi vujudga keladi<sup>58</sup>.

Rossiya hukumati ma‘murlarining talabi bilan amir 1900-yilda Termiz hududidagi 10514 desyatina er Rossiyaga topshiriladi<sup>59</sup>. Bu jarayonning amalga oshishi Rossiyaning markaziy hududlari bilan aloqani bog‘lashni yaxshilash taklif qilinadi. Ushbu tavsiya asosida yo‘llar, telegraf liniyalari, keyinchalik esa temir yo‘l o‘tkazish muhim masalaga aylanadi. 1906-yilda Tuproqqal’a harbiy shaharchasi qurib bitkaziladi. Harbiylar shaharchasi uch tomondan g‘isht devorlari bilan o‘rab olinib, o‘n ikkita ko‘chaga bog‘langan edi<sup>60</sup>. Pattakesarda esa, asosan, rus fuqarolariga tegishli binolar quriladi.

Qurilayotgan temir yo‘l amirlik markazini Sharqiy Buxoro hududidagi 9 ta beklik bilan bog‘lagan. Ularda 470 ming kishi istiqomat qilgan<sup>61</sup>. Buxoro amiri muhandis A.N. Kovolevskiyga temir yo‘l qurilishi xizmati uchun 600 desyatina yer hamda qurilishga ketadigan xarajatlarning 25 foizini ajratishni o‘z zimmasiga oldi<sup>62</sup>. 1916-yil iyul oyida ishchilar soni 7 ming kishiga etkazilgan<sup>63</sup>. 1916-yil 14-iyulda 573 verstni tashkil qilgan qurilish nihoyasiga yetgan. Kogon-Termiz temir yo‘lining 150 verstni afg‘on chegarasi bo‘ylab o‘tgan<sup>64</sup>. O‘rta Osiyoda XIX asr oxiri – XX asrning dastlabki o‘n yillarida barpo etilgan temir yo‘llar tizimi Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro va Xiva xonliklari bilan savdo-sotiq aloqalari faollashuviga olib kelgan. Kaspiyorti temir yo‘li va Amudaryo bo‘ylab kema qatnovining yo‘lga qo‘yilishi rus ishbilarmonlarining Buxoro amirligiga kelishini yanada ortishiga sabab bo‘lgan<sup>65</sup>.

<sup>56</sup> Железные дороги в Среднюю Азию // Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Средней Азии. – СПб., 1890. – С. 3.

<sup>57</sup> O‘z MA. 1396-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 1490-ish, 59-varaq.

<sup>58</sup> O‘z MA. I-3-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 133-ish, 90-varaq.

<sup>59</sup> O‘z MA. I-3-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 259-ish, 8-varaq.

<sup>60</sup> O‘z MA. I-3-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 840-ish, 52-53-varaqlar.

<sup>61</sup> Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата. – М., 1958. – С. 9.

<sup>62</sup> Заря Сурхана. 1996 г. 12 апрель.

<sup>63</sup> Ахмеджонов З.К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917). – Ташкент: Наука, 1965. – С. 87.

<sup>64</sup> Холикова Р. Россия – Бухоро: тарих чоррахасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 217.

<sup>65</sup> O‘z MA. I-2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 8-ish, 6-varaq.

Xullas, Surxon vohasining Denov, Termiz, Sherobod shaharlari, nafaqat vohada, balki butun Buxoro amirligida iqtisodiy jihatdan rivojlangan shaharlarga aylandi. Shaharlar, nafaqat o'zining bozorlari, madrasalari, hammomlari, choyxona va oshxonalari, balki o'rganilayotgan davrda muhim iqtisodiy, madaniy markazlar bo'lganligi bilan ham muhim hisoblanadi. Amudaryoda rus flotiliyasining tashkil topishi hududda savdo aloqalaridan ko'ra, Rossiyaning harbiy manfaatlariga ko'proq xizmat qilardi. Qarshi-Termiz temir yo'li, Surxon vohasi iqtisodiyotida, savdo-sotiq rivojida muhim ahamiyatga ega edi. Buxoro amirligida temir yo'llarning qurilishi natijasida turli xalqlarning integratsiyasi mahalliy hamda ko'chib kelgan aholining kundalik turmushi va maishiy hayotini boyitishga xizmat qilganligi to'g'risidagi arxiv ma'lumotlari tadbqiq etildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Surxon vohasi bekliklarining ichki va tashqi savdo aloqalari”** deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi paragrafi vohada ichki savdo aloqalariga bag'ishlangan.

Buxoro amirligida ichki bozorlar haftada ikki kun faoliyat ko'rsatgan. Qorako'lda payshanba va yakshanba, Sherobodda payshanba va yakshanba, Boysunda dushanba va payshanba, Qarshida seshanba va shanba kunlari bo'lgan<sup>66</sup>. Bekliklar orqali bo'ladigan ichki savdo aloqalarida har bir hudud uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ayriboshlash muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, To'palang hovuzi orqali qo'y va echkilar Shahrisabz va Samarqandga olib borib sotilgan va uning bozorlaridan hunarmandchilik mahsulotlari xarid qilingan<sup>67</sup>. Boysun qandolatchilari tayyorlagan holva G'uzor va Kelif bozorlarida sotilgan<sup>68</sup>.

XX asrning 20-yillarida vohada 20 ta bozor faoliyat ko'rsatgan. Bozorlar ichida xorijiy mamlakatlar bilan savdoda Pattakesar bozori muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, voha ichidagi savdo-sotiq masalalariga Sariosiyo, Sho'rchi, Denov hamda Sherobod bozorlarining o'z o'rni bo'lgan<sup>69</sup>. Ichki savdo yo'llari o'zining tuzilishi, xususiyatiga ko'ra ikkiga – quruqlikdagi karvon yo'llari va suv yo'llariga bo'linib, XVIII-XX asrlarda Buxoro amirligining markazi bilan bog'lovchi quruqlik savdo yo'llarining asosiy qismi tekislikdan, unchalik katta bo'lmagan qismi qumlik orqali o'tgan<sup>70</sup>.

Surxon vohasi bekliklaridagi eng katta bozorlar Termiz, Sherobod, Denov va Boysun bozorlari bo'lgan. Denov bekligining eng katta bozori Denov bozori bo'lib, unda 100 ga yaqin kichik do'konchalar bo'lgan. Beklikning tog' qishloq aholisi (Hovuz, Sina, Vaxshivor) o'zlari yetishtirgan uzumlarni mahalliy yaqin bozorlarga chiqargani holda, o'zlariga kerakli mahsulotlarni, xususan, Boysundan temir belkuraklar, ya'ni qishloq xo'jaligi, uy-ro'zg'or uchun zarur mehnat qurollarini xarid qilishgan<sup>71</sup>. Denov bekligi savdogarlari Sherobod bekligiga quyidagi yo'nalishlar orqali borishgan. Kaptarxona-Pastundara-Mirshodi,

<sup>66</sup> Гинтылло. Интендантская сведения о Бухаре 1885 г... – СПб., 1889. – С. 4-43.

<sup>67</sup> Кармышева Б.Х. О торговле в Восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией... – М.: Наука, 1979. – С. 119.

<sup>68</sup> O'sha joyda. – С. 117.

<sup>69</sup> Каюмов Асрор. XX аср бошларида Ўзбекистон худудида этник ҳолат. – Тошкент, 2015. – Б. 144-145.

<sup>70</sup> Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1. – СПб., 1911. – С. 206.

<sup>71</sup> Кармышева Б.Х. О торговле в Восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией... – С. 120.

Tangimush-Bandixon, Karmak-Gilambob-Qiziriqdan dala orqali Sherobodga chiqilgan<sup>72</sup>. Boysun bekligining tog‘li qishloqlar aholisi yetishtirgan uzum, o‘rik, olma, nok mahsulotlarini yoz oylarida chorva mollarini haydab kelgan yarimo‘troq aholiga sotganlar. Boysun bekligi bilan Sherobod bekligi o‘rtasida harakatlanadigan karvon yo‘li nafaqat ichki savdoda, balkim tashqi savdoda ham muhim o‘rin tutgan. Mazkur yo‘lni bejizga katta karvon yo‘li deb atashmagan<sup>73</sup>.

Sherobod bozori yakshanba va payshanba kunlari ishlagan. Sherobod bekligida 20.000 botmon bug‘doy, 10.000 botmon arpa, 1000 botmon guruch yormasini (oktabr oyida) sotib olish mumkin bo‘lgan<sup>74</sup>. Bozorda o‘tin ham sotilgan. Termizga o‘tin, asosan, Qo‘rg‘ontepa, Qabodiyon beklilari va Jiliko‘l amlokдорliklaridan qayiqlar yordamida olib kelingan<sup>75</sup>.

Xullas, Surxon vohasida qadimdan savdo-sotiq yuzaga kelgan. Boysun, Sherobod va Denov bekliliklarida bozor mahsulotini ishlab chiqarish va tovar-pul munosabatlarining rivoji, albatta muayyan ijtimoiy tuzum va mehnat taqsimoti darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Surxon vohasida bozorlarning soni, ularning savdo mahsulotlarini olib borish kabi masalalar ilmiy ishda tahlil etilgan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Surxon vohasining Sharq davlatlari bilan savdo aloqalarida tutgan o‘rni”** deb nomlanadi.

Rus hukumati Buxoro amirligi ustidan o‘z protektoratini o‘rnatgandan so‘ng, Sharq davlatlari bilan bo‘ladigan savdo aloqalarida Rossiya manfaatlari ustunligini ta‘minlash choralari ko‘rgan. 1873-yil 23-sentabrda Buxoro amiri Muzaffarxon va Turkiston general-gubernatori Kaufman o‘rtasida imzolangan shartnomaning 7-moddasida rus savdogarlariga Buxoro hududidan qo‘shni davlatlarga tovarlarni bojsiz olib o‘tish huquqi berilgan<sup>76</sup>.

1895-yil boshlarida Kerki, Kelif, Cho‘chqaguzar, Pattakesar va Ayvanj bojxonalari ish boshlagan. Rus-afg‘on chegarasidagi savdoni nazorat qilish 1895-yil 1-iyuldan O‘rta Osiyodagi tashqi savdo ustidan Rossiya imperiyasi nazoratini uzil-kesil o‘rnatgan<sup>77</sup>. O‘rta Osiyoda mustamlaka boshqaruv tizimining o‘rnatilishi, nafaqat iqtisodiy hayotga, balki savdo-sotiq rivojiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Afg‘oniston, Eron, Qoshg‘ar, Hindiston bilan olib boriladigan savdo-sotiq bevosita imperiya manfaatlariga bo‘ysundirilgan.

Surxon vohasida erkin rus savdosini rivojlantirish, bekliliklar ixtiyoridagi bozorlarni o‘z ta‘siriga olish hamda ingliz sanoati mahsulotlarini Sharqiy Buxoroga kiritmaslik maqsadida rus hukumati Sharqiy Buxoro va Afg‘oniston bozorlariga kiritilayotgan har bir pud rus sanoat mahsuloti uchun rus savdogorlariga 4 rubl 50 tiyindan 6 rubl 50 tiyingacha maxsus mukofotlar belgilagan<sup>78</sup>. Rossiya hukumati savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish uchun savdo yo‘llari masalalarini hal qilish bilan birga savdo-sotiq ishlarini tashkil qiluvchi idoralar faoliyatini yo‘lga

<sup>72</sup> Кап.Лилиенталь. Гиссарское и Кабадианское бекства....Вып.57. – СПб., 1894. – С. 312.

<sup>73</sup> Сов.Петрова. Реконгносцировка Бухарских владений.... – СПб., 1888. – С. 80.

<sup>74</sup> Кап.Гинтылло. Сведения по интендантской части.собранные в Бухарском ханстве... – С. 25.

<sup>75</sup> O‘z MA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 381-ish, 1-varaq.

<sup>76</sup> O‘z MA. I-1-jamg‘arma, 12-ro‘yxat, 1775-ish, 108-varaqning orqa tomoni. -109 varaq.

<sup>77</sup> O‘z MA. I-1-jamg‘arma, 11-ro‘yxat, 1319-ish, 2-varaq.

<sup>78</sup> Логофет Д.И. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.I. -С.16.

qo'yishga alohida e'tibor qaratgan. Buxoro amirligi hududi shaharlarida savdo, transport va sug'urta idoralarining tashkil etilishi fikrimiz isbotidir.

Xullas, rus davlatining O'rta Osiyo xonliklari bilan munosabatlariga doir dalillar har ikkala tomonning savdo-sotiq manfaatlari va iqtisodiy manfaatlari mos bo'lib tushganligini ko'rsatadi. Surxon vohasi hududida ham Rossiya imperiyasining ta'siri oshib borganini va bu savdo ayriboshlash, mahsulotni tayyorlash va uni sotish kabi masalalarni o'z ichiga olganini tadqiqot ishida arxiv materiallari va tegishli tarixiy adabiyotlar asosida tadbiq qilindi.

Buxoro amirligining Sharq davlatlari, xususan, Hindiston, Afg'oniston bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalari uzoq tarixga ega. 1820-yilda Buxoroda 250 taga yaqin hind yashagan. Buxoro amirligining Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarida Termiz va Sherobod shaharlari muhim o'rin tutgan<sup>79</sup>. Har yili Kelif va Sherobod orqali Afg'onistondan-Buxoroga 6 mingdan ortiq tuyalarda turli xil mahsulotlar olib kelingan<sup>80</sup>. Surxon vohasining asosiy savdo markazlardan biri Denov bo'lib, bu yerga temir, cho'yan, po'lat buyumlar, movut, charm-teri va ip-gazlamalar keltirilgan. 1886-yili Hindistondan 8 mingdan ortiq tuyalarda 100 ming pud har xil turdagi mollar Buxoroga olib kelingan. Hisob-kitoblarga qaraganda, bu mahsulotlarning umumiy narxi 5 million 475 ming so'mni tashkil etgan, Buxorodan Hindistonga 427 ming so'mlik mahsulot eksport qilingan<sup>81</sup>. Buxoro-Hindiston savdosida choy muhim o'rin tutgan<sup>82</sup>.

Umuman olganda, Buxoro amirligining Rossiya va boshqa chet el davlatlari bilan savdo aloqasining kuchayishi mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishini qisqartirib yubordi. Ammo, hududning jahon bozoriga tortilishi ayrim sohalar rivojiga turtki bergan. Xususan, gilam to'qish, qorako'l teri tayyorlash kabi hunarmandchilik tarmoqlarida tayyorlangan mahsulotlar hudud aholisi ehtiyojini qondiribgina qolmay, jahon bozorida o'z hududlariga ega bo'la borgan. Alohida ta'kidlash joizki, Buxoro amirligining bekliklarida ishlab chiqarish o'z ahamiyatini yo'qotmadi, balki iqtisodiyotdagi o'z o'rnini saqlab keldi. Buni O'rta Osiyoda kustar hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lgan kishilar sonidan ham bilish mumkin.

## XULOSA

Dissertatsiyada "Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rni" mavzusini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Surxon vohasidagi bekliklarning ma'muriy boshqaruvi, beklik markazi va u bilan tutashgan amlokliklarning joylashuvi, xo'jalik faoliyati, aholi soni, etnik tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bo'yicha o'rganilgan manbalar ilmiy tadqiqot jarayonida tahlil etildi. Bu shuni ko'rsatadiki, amirning tayinlashiga qarab bekliklarning katta-kichikligi, mahalliy sharoiti va aholi soni bilan amirlikda o'z o'rniga ega bo'lgan. Amirning oldidagi xizmati evaziga beklik va amaldorliklar tashkil etilgan yoki tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tarixiy manbalar va adabiyotlarda qiyosiy jihatdan taqqoslash asosida o'rganilgan.

<sup>79</sup> O'z MA. I-1-jamg'arma, 34-ro'yxat, 675-ish, 114-varaq.

<sup>80</sup> O'z MA. I-126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1029-ish, 1-varaq.

<sup>81</sup> O'z MA. I-1-jamg'arma, 11-ro'yxat, 504-ish, 3-varaq.

<sup>82</sup> Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – С. 16.

2. Buxoro amirligida Boysun, Sherobod va Denov bekliklari xo'jaligi faoliyatida ishlab chiqarish kuchlari rivoji, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi, turlarining ko'payishi doimiy tarzda yuqori tabaqa nazoratida bo'lgan. Shu sababdan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash, davlat xazinasini to'ldirish, ma'muriy-siyosiy, harbiy vaziyatni tartibga solish, mustahkamlash maqsadida amirlik hududidagi aholini soliqqa tortish orqali amalga oshirilgan. Mustahkam siyosiy tizimga ega bo'lmagan Buxoro amirligi soliqlar hisobiga yashaydigan feodal davlat edi, soliqni, asosan, mahsulot hisobida yig'ib olish rivojlangandi. Buning sababi shundaki, aholida naqd pulning yo'qligi, amirlikda ish haqi deyarli pul bilan to'lanmay, balki natural shaklda kelishuv asosida amalga oshirilgan. Surxon vohasi bekliklarida ham moliya va soliq tizimi hukmron tabaqa manfaatlariga qaratilgan bo'lib, soliq yig'ish jarayonida mehnatkash aholini talash, qo'shimcha soliq va yig'imlar tashkil etish kabi masalalar tadqiqotda arxiv ma'lumotlari, tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida tadqiq qilingan.

3. O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo yo'llari bo'ylab o'nlab rabotlar, karvonsaroylar, sardobalar, korizlar, quduqlar qurilgan. Masalan, Beshqo'ton, Toshkent, Oqtosh, Qorakamar yo'li bo'yida joylashgan karvonsaroylar xavfsizlikni hamda savdogarlarni ichimlik suvi bilan ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

4. Rossiya imperiyasi o'zining buyuk strategik maqsadlarini amalga oshirish, O'rta Osiyoning ichki hududlariga kirib borish, Afg'oniston va Hindiston bozorini zabt etish uchun Amudaryodan foydalanishga aloida e'tibor bergan. Rossiya kapitalining O'rta Osiyo bozoriga kirib kelishi natijasida savdo-sotiq ishlari avj olib, tranzit hajmi va unga talabni oshirgan. Bu davrda flotiliya paroxodlari va mahalliy kema-qayiqalar ehtiyojni qondirish uchun Amudaryoda xususiy kemachilik jamiyatlarini tashkil etish ishlari boshlab yuborilgan. Surxon vohasining Amudaryo bilan bog'langan suv yo'llarida savdo kemachilik qatnovining yo'lga qo'yilishi hududlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy integrasiyani yanada kuchayishiga xizmat qilgan.

5. Buxoro amirligini o'zaro bog'lovchi Kogon-Termiz temir yo'li qurilishiga Rossiya imperiyasi muhim dolzarb masala sifatida e'tibor qaratgan. Natijada, ingliz tovarlarini O'rta Osiyo hududiga kirib kelishini oldini olish va mahalliy aholi ehtiyojlari uchun rus tovarlarini ko'paytirish hisobiga buni amalga oshirish zarur hisoblangan. Termiz temir yo'l tarmog'ini kelajakda Angliya-Hindiston temir yo'l tarmog'i bilan birlashtirish, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning eng boy o'lkalari bilan savdo-sotiqni rivojlantirish ham ko'zda tutilgan.

6. Buxoro amirligida ichki bozorlar haftada ikki kun ish ko'rsatgan. Qorako'lda payshanba va yakshanba, Sherobodda payshanba va yakshanba, Boysunda dushanba va payshanba, Qarshida seshanba va shanba kunlari bo'lgan. Bekliklar orqali bo'ladigan ichki savdo aloqalarida, har bir hudud uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ayriboshlash muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, To'palang hovuzi orqali qo'y va echkilar Shahrisabz va Samarqandga olib borib sotilgan va uning bozorlaridan hunarmandchilik mahsulotlari xarid qilingan.

7. Buxoro amirligining Hindiston, Afg'oniston, Eron bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalari uzoq tarixga ega. Surxon vohasi bu ikki davlat o'rtasida tranzit savdo

aloqasini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'lida joylashgan. Buxoro amirligi bilan Afg'oniston savdosida Mozori sharif, Shibirg'on, Chorviloyat, Axcha, Andxo'y, Saripul, Maymana kabi shaharlar muhim o'rin tutgan, bu yerlardan Termiz - Denov savdo yo'llari orqali har yili 6000 dan ortiq tuyalarda turli xil mahsulotlar Buxoroga olib o'tilgan.

Tadqiqot xulosalari asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rni mavzusiga oid ma'lumotlardan O'zbekiston tarixi bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, jumladan, Buxoro amirligi tarixiga oid maxsus uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

2. "Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish hamda xorijlik soha mutaxassislarini jalb etish tavsiya etiladi;

3. "Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rni" mavzusi borasidagi ilmiy tadqiqotlar sonini ko'paytirishga oid "Buxoro amirligi davrida Sharqiy Buxoro bekliklarida savdo-sotiq munosabatlarining o'rnini onlayn platforma va mobil ilova dasturlarini yaratish" amaliy loyihalarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 03/27.02.2021.Tar.70.05 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**ТЕРМЕЗСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

**КАБИЛОВ КАМОЛИДДИН ЭШБОЛТАЕВИЧ**

**РОЛЬ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА В ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ  
МАНГЫТСКОГО ПЕРИОДА**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по  
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за B2023.2.PhD/Tar1408.**

Диссертация выполнена в Термезский университет экономики и сервиса

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Турсунов Нурилло Нарзуллаевич**  
доктор исторических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Хасанов Акрам Муминович**  
доктор исторических наук, профессор

**Очилдиев Файзулла Бобокулович**  
доктор исторических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Шахрисабзский государственный педагогический институт**

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Б.Ж. Эшов**

Председатель Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.и.н., профессор

**Н.Н. Ражабова**

Ученый секретарь Научного  
совета по присуждению учёных  
степеней, к.и.н, доцент

**Ю.А. Эргашева**

Председатель Научного семинара  
при Научном совете по  
присуждению учёных степеней,  
д.и.н., профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Процессы глобализации и интеграции, происходящие в прогрессивных государствах мира, невозможно представить без сетей торговых отношений и системы коммуникаций. В этом процессе в рамках таких проектов, как ООН «Восстановление и развитие Великого шелкового пути», ЮНЕСКО «Комплексное изучение Шелкового пути – путь диалога», изучение истории развития экономических и культурных связей между народами Запада и Востока приобретает актуальное значение. Сотрудничество между странами и регионами в области науки, культуры, а также международное сотрудничество в сфере торговли, транспортной логистики, туристических услуг является логическим продолжением многовековых культурных и торговых связей, глубокий анализ которых является важным.

В настоящее время в развитых научных центрах мира ведутся научные исследования по изучению истории развития торговых связей, связывающих регионы и регионы, роли таких коммуникационных сетей, как сухопутные и водные пути, в экономическом сотрудничестве, в том числе значения внешних и внутренних торговых связей в экономическом развитии стран. Также ведется работа по восстановлению древних торговых путей через территории, через которые проходил Великий шелковый путь, дальнейшему развитию системы торговых сетей, внедрению на современной основе богатого прошлого опыта, накопленного в области рынков, караван-сараев, таможенно-налоговой и денежно-финансовой сфер истории, разработке различных международных торговых программ по повышению социально-экономического благосостояния общества.

Проводимые в последние годы в Узбекистане реформы по дальнейшему развитию рыночных экономических отношений направлены на дальнейшее укрепление экономического положения страны и повышение материального благосостояния населения. Особенно, для подъема экономики регионов одной из важных задач, стало восстановление торговых, экономических и культурных связей, которые, как и в прошлом, осуществлялись по Великому шелковому пути. Ибо, «Сегодняшняя реальность требует решительных шагов по формированию новой модели экономического сотрудничества в Центральной Азии. Необходимо дальнейшее расширение межрегиональной торговли<sup>1</sup>. В связи с этим освещение торгово-экономических отношений в регионе на основе историко-хронологической последовательности, сравнительного подхода является одним из важных вопросов. Актуальным является освещение важного историко – экономического значения торговых связей Сурханского оазиса XVIII – начала XX веков и инфраструктуры обслуживавших их торговых путей.

Данная диссертационная работа в определенной степени послужит реализации задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 366.

УП-4861 от 2 декабря 2016 года «О мерах по обеспечению ускоренного развития туристской отрасли Республики Узбекистан», в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5643 от 28 января 2019 года «О мерах по совершенствованию системы управления в сферах инвестиций и внешней торговли», в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3221 от 16 августа 2017 года «О мерах по совершенствованию деятельности Государственной инспекции Республики Узбекистан по надзору за безопасностью железнодорожных перевозок», в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-5647 от 1 февраля 2019 года «О мерах по коренному совершенствованию Государственного управления в сфере транспорта», в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4300 от 29 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию механизмов привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику республики» и других нормативно-правовых актах, связанных с этой деятельностью.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данная диссертационная работа выполнена на основе приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления в социальном, правовом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Литературу по тематике историографии целесообразно условно разделить на следующие группы: 1. Труды, написанные накануне вторжения в Бухарский эмират и Российской империи, и в период их правления. 2. Научные труды, созданные в советское время. 3. Литература, опубликованная в период независимости и проведенные исследования данного времени. 4. Труды зарубежных авторов, отражающие некоторые вопросы истории Бухарского эмирата.

К первой группе относятся труды отечественных и российских ученых, русских военных, путешественников и послов, пытавшихся всесторонне изучить Бухарский эмират с середины XIX века<sup>2</sup>. В их работах основное внимание уделяется общему описанию Бухарского эмирата, отмечаются некоторые сведения, проливающие свет на отдельные аспекты торговых отношений в эмирате. В частности, в них отражена политическая, социально-экономическая жизнь эмирата в XIX веке, функционирование рынков и

---

<sup>2</sup> Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. – 271 б.; Ахмад Дониш. История мангитской династии. – Душанбе: Дониш, 1967. – 274 с.; Мирза Салимбек. Тарихий Салимий. – Тошкент: Академия, 2009. – 330 с.; Небольсин П.И. Очерки торговли России с Средней Азией / Зап. РГО. Кн. X. – Санкт-Петербург, 1855. – С. 1-355; Ёша муаллиф. Следование караванов из Бухары в Россию и обратно (Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом). – Санкт-Петербург, 1856. – 376 с.; Борнс А. Путешествие в Бухару. Ч.I-II. – М., 1848-1849; Вамбери А. Путешествие в Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1865. – 348 с.; Грулев М.В. Амударья. – Ташкент, 1900. – 92 с.; Губаревич-Радобильский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – Санкт-Петербург, 1905. – 372 с.; Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – Санкт-Петербург, 1871. – 13 с.; Семёнов-Тянь-Шанский В.П. Россия. Полное геогр. Описание. Т. 19. Туркестанский край. – Санкт-Петербург, 1913. – 860 с.; Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1876-1879 гг.Т.1. – Санкт-Петербург, 1882. – 387 с.

